

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI  
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

**«KELISHILDI»**

Respublika o'рта tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi

hududiy xay'at raisi

L. X. Musadjanova  
«12» dekabr 2025 y.



**«TASDIQLAYMAN»**

Respublika o'рта tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari malakasini  
oshirish va ularni ixtisoslashtirish  
markazi direktori

L. X. Musadjanova

«12» dekabr 2025y.



**Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash**

## **Hamshiralik ishi**

(sikli bo'yicha ixtisoslashtirish guruhlariga uchun)

**O'QUV DASTURI**

**(432 kredit)**

**Toshkent – 2025 yil**

**TUZUVChiLAR:**

L.X.Musadjanova Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika  
xodimlari malakasini oshirish va  
ularni ixtisoslashtirish markazi direktori,  
t.f.d. professor

S.A.Muxamedjanova Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika  
xodimlari malakasini oshirish va  
ularni ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

S.R.Ismailova Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika  
xodimlari malakasini oshirish va  
ularni ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

**TAQRIZChiLAR:**

Z.Z.Imamova Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika  
xodimlari malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi o'quv ishlari  
bo'yicha direktor o'rinbosari

M.S.Salayeva Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti klinik  
modellash tirish kafedras i dotsenti t.f.n.

O'quv dasturi Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida  
ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 9 » 12 20 25 y.

bayonnoma № 6

Pedagogik kengash raisi



L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama  
qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 12 » 12 20 25 y.

bayonnoma № 5

## 1. Kirish

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, ixtisoslashtirish, tibbiyot muassasalarida o‘rta tibbiyot xodimlari ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Dasturda o‘quv fanning mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. ”O‘zbekistonda ilg‘or tibbiy texnologiyalarni boshqarish” Loyihasi doirasida Germaniya xalqaro hamkorlik (GIZ )jamiyati vakolatxonasi bilan hamkorlik doirasida, JSST va YUNISEF tomonidan tavsiya etilgan BTSYO muassasalarida onalar va bolalarga universal-progressiv modeli bo‘yicha xizmat ko‘rsatish yo‘riqnomalaridan foydalanilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e‘tiborga olingan. Modul asosida tuzilgan dasturda o‘quv fanning mazmuni uni o‘zlashtirish shakli va usullari bilan birlashgan. “Hamshiralik ishi” o‘quv dasturi o‘quv rejasiga muvofiq tuzilgan bo‘lib, 7 yildan 10 yilgacha mehnat stajida uzilish bo‘lgan hamshiralarni 432 soat (3 oy) ixtisoslashtirish uchun yaratilgan.

Dastur fanlar modullariga ajratilgan bo‘lib: kasbiy rivojlanish modulida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2025 yil 15-avgustdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini yanada oshirish haqida” 255-sonli buyrug‘i ijrosini bajarish maqsadida “Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish”moduli kiritildi. Kasbiy rivojlantirish modulida ma‘naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma‘lumotlar kiritilib, tibbiy talimning uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta‘minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan.

**1.1. Maqsad:** Hamshiralik ishi yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan o‘rta tibbiyot xodimlarini mutaxassisligi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarini yangilash va takomillashtirish, ularga davolash ishining mohiyati, uning sog‘liqni saqlash tizimidagi o‘ziga xosligi, normativ- huquqiy hujjatlar bilan ishlash, kasbiy majburiyatlarni amalga oshirishda mavjud standart va protokollar asosida bilimlarini hozirgi zamon talablariga mos ravishda amalga oshirish va ularni amaliyotga joriy qilish holatida tayyorlash.

**1.2. Vazifalar:**

- Umumiy ixtisoslashtirish o‘quv jarayonini modulli tibbiy ta‘lim tamoyili bo‘yicha, zamonaviy, innovatsion, tibbiy dalillarga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma‘lumotlarga, dastur talablariga mos holda tuzilgan o‘quv dasturi bo‘yicha tizimli tashkillashtirish va hamshiralik ishi mutaxassislari uchun kerakli amaliy ko‘nikmalarni mustaqil qo‘llashga tayyorgarlikni yangilash.
- sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar va me‘yoriy hujjatlarni ish faoliyatida qo‘llay bilishni o‘rgatish;
- aholi o‘rtasida salomatlik ko‘rsatkichlarini yanada oshirishi;
- tibbiyot sohasidagi yangiliklar, va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida amaliy ko‘nikmalarini yangilash;
- nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash.

**1.3. Ta‘lim oluvchilar toifasi (kontingenti):** O‘quv dasturi davolash profilaktika muassasalarida faoliyat olib borishni rejalashtirgan o‘rta tibbiyot xodimlari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo‘riqnomalariga muvofiq, ya‘ni mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo‘lgan lekin mehnat stajida 7 yildan 10 yilgacha uzilish bo‘lgan ”Hamshiralik ishi” yo‘nalishi bo‘yicha ixtisoslashtirishni rejalashtirgan hamshiralalar uchun mo‘ljallangan.

**1.4. O‘quv dasturni o‘zlashtira olish uchun zarur bo‘lgan tinglovchi kompetensiyasi:**

- Tibbiy etika va deontologiyani asoslarini amaliyotda qo‘llay olishi;
- amaldagi me‘yoriy xujjatlar bilan ishlash, soxa bo‘yicha zamonaviy yutuqlardan xabardor bo‘lib, uni amalda qo‘llay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- o‘rta tibbiyot xodimlarining huquqiy meyorlarini, bemor huquqlarini bilishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- hamshiralarni lavozimlik burchlarini bilishi; mutaxassisligi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishi;
- tashqi muhit omillarining inson sog‘ligiga ta‘siri, ekologik muvozanat buzilishining atmosfera havosiga ta‘siri, havoni ifloslantiruvchi manbalar haqida ma‘lumotga ega bo‘lishi;
- turli yoshdagi insonlarning a‘zo va tizimlarining anatomik-fiziologik xususiyatlarini bilishi;
- anamnez ma‘lumotlarini yig‘ishning asosiy usul va tamoyillarini bilishi;
- kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarda va baxtsiz hodisalarda shoshilinch, tez yordam ko‘rsatishda o‘z vaqtida tashxislash ko‘nikmalarga ega bo‘lishi;

- kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bilim va ko'nikmalariiga ega bo'lishi;

### **1.5. Dasturning dolzarbligi:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4310 -son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi №160 "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi", buyrug'i ijrosini ta'minlash doirasida, amaliy tibbiy yordamning real etiyolaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar diagnostikasi, zamonaviy davolash va proflaktika choralarni qo'llash, shuningdek tibbiyot huquqi bo'yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

**1.6. Dastur hajmi:** 432 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

### **1.7. O'qish shakli:**

- kunduzgi o'qish
- on/offline, masofaviy / a'nanaviy o'qish

**1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi:** Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi № 160 buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar 9<sup>00</sup> da boshlanib, 13<sup>40</sup> da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

**1.9. O'qish tugagandan so'ng beriladigan xujjat:** o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Hamshiralik ishi" bo'yicha 432 kredit ixtisoslashtirish o'tganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

## **2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI**

### **2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim (natijalari)dan so'ng tinglovchi kompetensiyasi:**

- tinglovchining fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- o'z-o'zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to'g'ri qarorlarni qabul qilish, aholi orasida tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ'ibot tadbirlarni olib borish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbiiq etish;
- hamkasblar, o'rta va kichik tibbiy xodimlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning ahloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga

oshirishi;

- intizomiy, ma'muriy, fuqarolik, jinoiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish bo'yicha o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish tayyorligi va amalga oshirishi;
- shaxsiy kompyuter texnologiyalari, turli manbalardan ma'lumot olish, global kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyati va istagi kengayadi;
- kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish;
- tibbiy-ijtimoiy va hamkorlik faoliyatini olib borish, kelishmovchiliklarni hal etish, hamkasabalar, patsiyentlar va ularning yaqinlari bilan to'g'ri muloqot qilish;
- yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish uchun ish joyini talab darajasida ta'minlash va o'rnatilgan tartibda tibbiy hujjatlarni yurita olish;
- sog'liqni saqlash tizimidagi yangiliklar, tibbiyot sohasidagi meyoriy hujjatlar va amaliyotning rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'ladi;
- turli yoshdagi insonlarning a'zo va tizimlarining anatomik-fiziologik xususiyatlarini;
- zamonaviy tibbiy jihozlarni ishlatish, texnik ishlov berish va ishlatishni tashkil etish vazifalari takomillashadi;
- kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'ladi;
- kasalliklar asoratlarini oldini olish, insonlarni salomatligini saqlash hamda, uni tiklashda ko'nikmalarga ega bo'ladi;
- kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda va baxtsiz hodisalarda shoshilinch, tez yordam ko'rsatishida qo'llaniladigan zamonaviy tibbiy tekshirish usullarini o'zlashtiradi;
- hamshiralik ishini amalga oshirish va tashkil etishning ilg'or shakllari va usullarini ishlab chiqish, ommalashtirish, tajriba almashish hamda boshqa kasbiy faoliyat turlariga moslashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi.

### 3. DASTUR MAZMUNI.

#### 3. “HAMSHIRALIK ISHI” ixtisoslashtirish kursi 432 kredit o‘quv dasturi rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari		Attestatsiya
			Nazariy mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot	
1.0	<b>Kasbiy rivojlantirish moduli</b>	<b>66</b>	<b>38</b>	<b>28</b>	
1.1	Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish.	6	6	-	
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar .	12	4	8	
1.3	Modul:Xorijiy til.	12	4	8	
1.4	Modul:Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me‘yoriy hujjatlar.	6	6	-	
1.5	Modul: Infekcion nazorat	12	8	4	
1.6	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.	6	2	4	
1.7	Modul: Shaxslar o‘rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat	6	4	2	
1.8	Modul: Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	6	4	2	
<b>2.0</b>	<b>Mutaxassislik fanlar moduli</b>	<b>360</b>	<b>120</b>	<b>240</b>	
2.1	Modul: Hamshiralik ishi asoslari va tibbiy muolajalar algoritmi	18	6	12	
2.2	Modul: Terapiyada hamshiralik parvarishlash.	60	20	40	
2.3	Modul: Xirurgiyada hamshiralik parvarishlash.	60	20	40	
2.4	Modul: Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik parvarishi.	30	10	20	
2.5	Modul: Pediatriyada hamshiralik parvarishlash.	60	20	40	
2.6	Modul: Yuqumli kasalliklarda hamshiralik parvarishi.	36	12	24	
2.7	Modul: Aholiga patronaj xizmatini ko‘rsatish.	60	20	40	

2.8	Modul: Favqulotda holatlarda aholiga tez tibbiy yordam ko‘rsatish.	36	12	24	
3.0	Attestatsiya	6			6
	<b>Jami:</b>	<b>432</b>	<b>158</b>	<b>268</b>	<b>6</b>

**”Hamshiralik ishi “ixtisoslashtirish kursi 432 kredit o‘quv dasturi modullar mazmuni.**

**1.1.Modul. O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan. Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagiasosiy vazifalar.O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim.Islohotlar markazida “Inson qadri uchun”degan ezgu tamoyil ustuvor.Yurtimizda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish maqsadida halqaro tajribani chuqur o‘rganish va amaliyotga samarali tatbiq etish borasida olib borilayotgan ishlar. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.“Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida shakllangan milliy qonunchilik tizimi, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda sog‘liqni saqlash tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar. Davlat siyosatining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi asosiy yo‘nalishlari. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatchilarining mas’uliyatini oshirish, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish, ochiq ma’lumotlar tizimini rivojlantirish va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish.

**1.2.Modul Tibbiyotda raqamli texnologiyalar.** Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, tibbiy statistik ma’lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo‘llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish. Internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma’lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilishi kerak. “Tibbiyot informatikasi

asoslari” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyot informatikasi asoslari, tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o‘rni;

hozirgi zamonda informatikaning o‘rni va roli, ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish

**1.3. Modul. Xorijiy til.** Ingliz tilini o‘qitishning maqsadi va vazifalari Tibbiyot xamshiralari ingliz tilini tanishtirish va tibbiyot soxasiga aloqadorligini tushuntirish xamda shu soxaga oid terminlarni o‘rganish. Ingliz tili alifbosidagi xarflar va asosiy qo‘llaniladigan terminlar. The verb “to be”, “to have” Introducing yourself. Tana a‘zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko‘p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o‘rgatish. Tana a‘zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko‘p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o‘rgatish. Ularni og‘zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o‘rgatish va qo‘llash. Tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o‘rgatish. Ularni og‘zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o‘rgatish va qo‘llash. Berilgan qo‘llanmalardan foydalangan xolda (At the doctor) mavzularida tinglovchilarni og‘zaki nutqini rivojlantirish

**1.4. Modul. Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me‘yoriy hujjatlar.** Sog‘liqni saqlash tizimini Davlat dasturlari, sog‘liqni saqlash tizimi islohotlariga oid Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishni asosiy yo‘nalishlari. Birlamchi tibbiy sanitariya yordamini isloh qilish. Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini milliy modulini yaratish. Shoshilinch tibbiy yordamni samarali va to‘liq tizimini yaratish. Aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish. Sog‘liqni saqlash tizimida yangi davr. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish. Respublikada epidemiologik barqarorlikka erishish va uni ushlab turish. Davlat xususiy - sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida islohotlarning mazmun mohiyati. Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari. Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmining huquqiy asoslari. Sog‘liqni saqlash tizimidagi me‘yoriy hujjatlar.

**1.5. Modul. Infekcion nazorat.** Infeksiya haqida tushuncha. Epidemiologiya asoslari. Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi. SanQvaM -0342-17, SanQvaM- 0317-15. Sanitariya epedimologiya

sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Ularning maqsadi, aholi salomatligini saqlash, kasallanishlarning oldini olish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish. Sanitariya qoida va me'yorlari bo'yicha ish olib borish. Tibbiy chiqindilarni yig'ish, saqlash va yo'q qilish. Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar haqida umumiy ma'lumotlar. Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar guruhiga kiruvchi kasalliklar, ularning profilaktikasi. O'ta havfli yuqumli kasalliklar aniqlanganda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi. OIV va OITS haqida tushuncha. Avariya holatlar haqida ma'lumot.

Davolash profilaktika muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktika hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish. SanQvaM bo'yicha joriy va mukammal tozalash o'tkazish. Qo'llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo'llarni yuvish tartibi.

#### **1.6.Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.**

Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

**1.7. Modul: Shaxslar o'rtasidagi muloqot va tibbiy maslahat** Jamiyat va bemorning salomatligi yo'lida halol mehnat qilish, har qanday sharoitda ham tibbiy yordam ko'rsatish. Bemorga diqqat e'tibor va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish va o'zining barcha xatti-harakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilish. Jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyati. Kasbning oliyanob an'alarini saqlash. Zamonaviy tibbiyot amaliyotida sezilarli e'tibor tibbiyot xodimlarining kasbiy ko'nikmalariga, bemorlar bilan ularning gender va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyatiga qaratilmoqda. Genderning salomatlikka ta'siri. Genderga sezgir tibbiy maslahat va aloqa to'g'risida tushuncha. Ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilish. Jamoat mulki tushunchasi va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish. Hamjihatlik va kollegiallik tuyg'ulariga rioya qilish. Neytral va xavfsiz muhitni yaratish. Salbiy munosabat va fikrlardan qochish. Tibbiy maslahatni hurmat va e'tibor bilan boshlash. Faol tinglash va empatiya. Tushunarli tildan foydalanish. Tibbiyot xodimining bemor bilan muloqot qilish qobiliyati. Muloqot ko'nikmalarining turlari va ularning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatning asosiy tuzilishi va ko'nikmalarining o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatni tartiblashtirish. Noverbal tildan foydalanish. O'zaro tushunishga erishish: bemorning holatini inobatga olish. Samarali muloqotning xususiyatlari

**1.8.Modul:Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik.** Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari.Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini

to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

**2.1.Modul: Hamshiralik ishi asoslari va tibbiy muolajalar algoritmi** Hamshiralik ishi fani maqsad va vazifalari. Hamshiralik jarayoni bosqichlari. Hamshiralik amaliyoti asoslari. Bemorlar parvarishi, hayotiy ko'rsatkichlarni aniqlash va baholash. Qo'lni standart gigiyenik, xirurgik va antiseptik vositalar yordamida zararsizlantirish usullari. Steril qo'lqoplarni kiyish va yechish algoritmi. Tibbiy muolajalar algoritmi. Dori vositalarini ahamiyati, nojo'ya ta'sirlari.Dori vositalarni eritish. Antibiotiklarga sinama qo'yish. Teriostiga, teriorasiga, muskul orasiga, vena ichiga ineksiyalar qilish algoritmi. Dori vositalarini saqlash,tarqatish va qo'llash. Bemorlarni klinik laborator va instrumental tekshiruvlarga tayyorlash.Vakuum tizimga qon olish. Sistemani infuziyaga tayyorlash va mavjud katetrga ulash algoritmi. Bog'lov materiallari turlari,o'lchamlari va ularni tayyorlash. Tibbiy tahlillar uchun biomateriallar yig'ish.

## **2.2. Modul: Terapiyada hamshiralik parvarishi.**

Nafas olish a'zolari tizimining anatomo-fiziologik xususiyatlari. Bronxit, bronxial astma kasalliklarni kelib chiqishida ekologiya, atrof-muhit, infeksiyaning ta'siri. Kasalliklarning tasnifi, zamonaviy tekshirish, davolash va parvarishlash usullari. Pnevmoniya, plevrit, o'pka sili. Kasalliklarni kelib chiqish sabablari. Kasalliklarni zamonaviy tibbiy asboblarda yordamida tekshirish usullari. Bemorlarda o'pkaning tiriklik sig'imini aniqlash, pikfloumetriyani o'tkazish, ularni rentgenologik tekshiruvlarga tayyorlash. Nafas olish a'zolari kasalliklarda bemor muammolarini aniqlash, ularni erta bartaraf etish chora- tadbirlari. Yuqori va pastki nafas olish a'zolari tizimining kasalliklarida rehabilitatsiya va davolovchi jismoniy tarbiya chora-tadbirlari. Kasalliklarining profilaktikasi. Yurak-qon tomir a'zolari tizimining anatomo-fiziologik xususiyatlari. Ateroskleroz sabablari, belgilari, asoratlari, zamonaviy tekshirish usullari, profilaktikasi. Arterial gipertenziya, kelib chiqish sabablari, belgilari, zamonaviy tekshirish usullari, davolash va parvarishlash. Arterial gipertenziyada bemorni parvarishlash. Gipertonik kriz, belgilari, bemorlarga shiforkorgacha tez tibbiy yordam ko'rsatish. Yurak ishemik kasalliklari kelib chiqish sabablari, kechishi. Miokard infarkti va stenokardiya hurujlarida tez tibbiy yordam ko'satish. Yurak qon – tomir tizimi kasalliklarini zamonaviy tekshirish usullari va ularga bemorlarni tayyorlash. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklari asoratlarini oldini olish, rehabilitatsiya va davolovchi jismoniy tarbiya chora-tadbirlari. Ovqat hazm qilish a'zolari tizimining anatomo-fiziologik xususiyatlari. Nutritsiologiya haqida tushuncha. O'tkir va surunkali gastritlar. Kasalliklarni zamonaviy tekshirish, davolash usullari, bemorlarni parvarishlash, kasallikni xuruji va asoratlarini oldini olish, parxez taomlar bilan davolash bo'yicha tavsiyalar berish. Yara kasalliklari, ularning kelib chiqishi, rivojlanishi, belgilari, asoratlari va ularda tez tibbiy yordam berish. Bemorlarni rentgenologik va endoskopik tekshiruvlarga tayyorlash. O'tkir va surunkali enteritlar va kolitlar. Ularning kelib chiqishi, belgilari, hamshira parvarishi.

O'tkir va surunkali jigar kasalliklari. O'tkir gepatit, uning kelib chiqishi belgilari, davolash, parvarishlash va oldini olish. Surunkali gepatit va jigar sirrozi, kelib chiqish sabablari, belgilari, hamshira tashhisi, zamonaviy tekshirish, davolash va parvarishlash usullari. O't qopi, o't yo'llari va oshqozon osti bezi kasalliklari ularning kelib chiqish sabablari, belgilari, zamonaviy tekshirish usullari. Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklarida reabilitatsiya va davolovchi jismoniy tarbiya chora-tadbirlari. Siydik ajratish a'zolari tizimining anatomo-fiziologik xususiyatlari. O'tkir va surunkali glomerulonefrit ularning kelib chiqishi va belgilari. Zamonaviy laborator va instrumental tekshirish usullari. O'tkir va surunkali piyelonefritlar kelib chiqishi, belgilari, parvarishlash. Buyrak tosh kasalligi kelib chiqishi, belgilari. Buyrak sanchig'i xurujida shifokorgacha tez tibbiy yordam. Buyrak va siydik yo'llari kasalliklarida salbiy asoratlari va ularni belgilari, asoratlarni oldini olish. Siydikni laborator tekshirish usullari. Sutkali diurezni aniqlash. Sinamalarni o'tkazish. Buyrak kasalliklarida reabilitatsiya va davolovchi jismoniy tarbiya chora-tadbirlari. Ichki sekretiya bezlari va modda almashinuvi buzilishi kasalliklarida hamshiralik parvarishi. Qalqonsimon bez faoliyati va uning gormonlari fiziologiyasi xaqida ma'lumot. Teriyosikoz kasallikni sabablari va bemor muammolarini aniqlash. Gipoterioz kasalligini sabablari va bemor muammolari aniqlash. Endemik buqoq kasallikni sabablari va bemor muammolari aniqlash. Qandli diabet kasalligi kelib chiqish sabablari, belgilari, bemorlarni parvarishlash, asoratlari va ularni oldini olish. Bemorni zamonaviy laborator va instrumental tekshirish usullariga tayyorlash. Insulin bilan davolash, dozalari, yuborish yo'llari, saqlash qoidalari. Gipoglikemik va giperglikemik komalarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam. Siydikda qand va atsetonni aniqlash usullari. Qandli diabet kasalligida reabilitatsiya, parhez va davolovchi jismoniy tarbiyani ahamiyati. Gematologik kasalliklarda hamshira parvarishi. Anemiya, turlari, kelib chiqishi, belgilari. Anemiyani turli klinik ko'rinishlarini aniqlash, davolash va bemor parvarishi. Gemorragik diatezlar, turlari, kelib chiqishi, rivojlanishi, belgilari, bemorlarni parvarishlash. Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklarini zamonaviy laborator tekshirish usullari. Biriktiruvchi to'qima kasalliklarini turlari (revmatizm, revmatoid artrit, podagra, Bexterev kasalligi), kelib chiqish sabablari, bemor muammolarini aniqlash va bemorlarni parvarishlash. Biriktiruvchi to'qima kasalliklarida bemorlarni zamonaviy tekshirish usullariga tayyorlash, bemorlar nogironligini oldini olish va ijtimoiy himoyalash masalalari. Kasalliklarni oldini olish bo'yicha tavsiyalar berish. Biriktiruvchi to'qima kasalliklarida reabilitatsiya va davolovchi jismoniy tarbiya chora-tadbirlari. Miyada qon aylanishi buzilishi kasalliklari. Ishemik va gemorragik insultlar, sabablari, kechishi. Zamonaviy tekshirish, davolash usullari va parvarishlash. Asab tizimi kasalliklarida reabilitatsiya va davolovchi jismoniy tarbiya choralari. Allergik kasalliklar ularning belgilari, bemor muammolari. Allergik kasalliklarini aniqlashni zamonaviy tekshirish usullari. Allergik kasalliklarda parhez bo'yicha bemorlarga tavsiyalar berish. Zaharlanish turlari, zaharlanish turiga qarab klinik belgilari, bemor muammolari va tez tibbiy yordam berish. Zaharlanishlarda parhez bo'yicha bemorlarga tavsiyalar berish.

### **2.3. Modul: Xirurgiyada hamshiralik parvarishlash.**

